

**BOLALARNI O`QITISH JARAYONIDA ULARNING QOBILIYATLARI  
СПОСОБНОСТИ ДЕТЕЙ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ  
ABILITIES OF CHILDREN IN THE PROCESS OF EDUCATION**

*Esemuratova Gulbanu Sultanbek qizi*

*Qoraqalpoq Davlat Universiteti  
Amaliy Psixologiya 3-kurs talabasi  
[esemuratovagulbanu@gmail.com](mailto:esemuratovagulbanu@gmail.com)  
+998934861835*

*Saparova Eldora Tajimuratovna  
Qoraqalpoq Davlat Universiteti  
Amaliy Psixologiya 3-kurs talabasi  
[saparovaldora@gmail.com](mailto:saparovaldora@gmail.com)  
+998885072512*

*Esbosinova Sarbinaz Muratbaevna  
Qoraqalpoq Davlat Universiteti  
Amaliy Psixologiya 1-kurs talabasi  
[sarbinazesbosinova@gmail.com](mailto:sarbinazesbosinova@gmail.com)  
+998937079963*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bolalarning qobiliyatlari ularning yangi bilimlarni o`zlashtirish jarayonida qanchalik ahamiyatli ekanligi haqida so`z yuritilgan.

**Аннотация:** В данной статье говорится о том, насколько важны навыки детей в процессе приобретения новых знаний.

**Abstract:** This article talks about how important children's skills are in the process of acquiring new knowledge.

**Kalit so`zlar:** O`qitish jarayoni, qobiliyat, iste`dot, metod.

**Ключевые слова:** Учебный процесс, способности, талант, метод.

**Key words:** Teaching process, ability, talent, method.

Qobiliyat deb odamning ma`lum bir ish yoki harakatlarni boshqa odamlarga nisbatan osonlik va chaqqonlik bilan bajara olish layoqatiga aytiladi. Kishilarda rivoj topib, ularning qobiliyatlarida namoyon bo`lgan xususiyatlar iste`dod deb ataladi. Har bir odam bir qancha layoqatlar bilan tug`iladi. Lekin tug`ma layoqatlar hali kamolotga etgan qobiliyat emas. Layoqatlar odamlardagi tug`ma imkoniyatlardir. Odatda umumiy va maxsus qobiliyatlar farqlanadi.

Odam umumiy qobiliyatlarga ega bo`lganda faoliyatning har xil turlari bilan deyarli qiynalmay shug`ullana oladi. Bunday o`quvchilar tabiat fanlarini ham, gumanitar fanlarni ham yaxshi o`zlashtiradilar. Maxsus qobiliyatga ega bo`lgan odam qandaydir aniq narsa bilan muvaffaqiyatli shug`ullana oladi. Bog`cha yoshida bilish, ba`zi bir maxsus va amaliy qobiliyatlar rivojlanadi. Qobiliyatning rivojlanishi tashqi va ichki sharoitlarning o`zaro aloqalari orqali belgilanadi. **Rubinshteyn** aytganidek, qobiliyat spiralsimon tarzda rivojlanadi: bir ko`rinishdagi qobiliyatlar keyingi rivojlanish uchun imkoniyat yaratadi, natijada yana ham yuqori darajadagi qobiliyatlar rivojlanadi.

O‘rab turgan olam bilan bog‘liq bilish qobiliyatlari o‘z ichiga sensor qobiliyatlarni (predmetlarni va tashqi vositalarni idrok qilish) kabi intellektual, bilimlarni oson va mahsuldor o‘zlashtirish, predmetlarning tabiyatini va tevarakatrofdagi hodisalar haqida ma‘lumotlarni anglash jarayonida rivojlanadi. Ko‘pgina psixologlarning tadqiqotlari bilish qobiliyatlarining ancha erta paydo bo‘lishi haqida ma‘lumot beradi. Ularning miqdori predmetlarning o‘ziga xos tomonlarini anglay olish, qiyin vaziyatlarni hal qilish qobiliyati, kuzatuvchanlik, ongining ijodkorligi va originalligini belgilaydi.

Leytes umumiy aqliy qobiliyatlarning rivojlanishida faollik va o‘zini boshqarish xususiyatlari katta ahamiyatga ega deydi. Hayratlanarli aqliy faollik, aqliy yuklamaga chanqoqlik intellektual jihatdan rivojlanishda ilgarilab ketayotgan bolalarning xarakteristikasidir. Bog‘cha yosh davrida bevosita bilishning shakllaridan bo‘lgan sensor etalonlarni va ko‘rgazmali-fazoviy modellashtirishni uddalay olish kabi xususiyatlar yuzaga kela boshlaydi. Kichik bog‘cha yosh davridayoq bolalarda modellashtirish o‘rganadi.

Psixologiyani o‘rganayotgan har bir o‘quvchiga Umumiy psixologiya darsligidan ma‘lumki bolalarning darsni qabul qilishida idrok har bir insonda turlicha ko‘rinishda uchraydi. Kimdur ularga so‘zlab bersa yetarli yangi bilimni eshitish orqali o‘zlashtirib oladilar. Ular Audial idrok qiluvchilar hisoblanadi. Boshqalar esa eshitishning uetarli emasligini, ularga yana ko‘rsatib berishlarini, video, foto materiallardan foydalanib dars o‘tishlarini so‘rashadi. Ylar Vizual idrok qiluvchilar hisoblanadi. 3-toifa esa yangi bilimlarni o‘zlari tajriba qilib ko‘rmaganlaricha buni o‘zlashtira olmasligini ta‘kidlaydilar. Ular kinestetik idrok qiluvchilar hisoblanadilar.

Agar biz Yuqoridagi ma‘lumotlarga asoslanib har bit o‘quvchiga o‘ziga mos tarzda dars o‘tishni o‘qituvchiga yuklasak bu juda og‘ir vazifa bo‘lishi turgan gap. Yana bu tarzda bolalarni o‘qitish samaradorligi haqida ma‘lumotlar yoq. Songi yillarda psixologlar tadqiqotlari shuni isbotlaydiki insonlarning yangi bilimlarni yaxshi o‘zlashtirishi bu bilimni olishda qanday usullardan foydalanilganligiga koproq bogliq. Shunday ekan bolalarga yangi bilimlarni o‘zlashtirish processida koproq etiborni dars qanday shakllantirilganligiga, darsda foydalanilafigan usullarga qaratsak natija kutganimizdek yaxshi bolishi mumkin.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1.Oila psixologiyasi: Akad. litsey va kasb-hunar kollejlari o‘quvchilari uchun o‘quv qo‘l. / G. B. Shoumarov, I. O. Haydarov, N. A. Sog‘inov va boshq.; G‘. B. Shoumarovning tahriri ostida; O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta-maxsus ta‘lim vazirligi, O‘rta maxsus, kasb-hunar ta‘limi markazi. — T.: «Sharq», 2010. — 296 b.

2. Z. Nishanova, G. Alimova. Bolalar psixologiyasi va uni o‘qitish metodikasi.

O‘quv qo‘llanma. -T.: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006. 160 b.